

**NEGATIVIZM DESTRUKTIV SHAXS XUSUSIYATI SIFATIDA****Kayumova Go'zal Narzullayevna**

TerDU psixologiya kafedrası

**Yaxyoyeva Muxayyo Hikmatullo qizi**

TerDU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6811656>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada negativizm va uning yondoshi bo'lmish agressiya, uning turlari va kelib chiqish sabablarining ijtimoiy psixologik tadqiqi haqida fikr yuritiladi.

*Kalit so'zlar:* agressiya, jismoniy agressiya, autoagressiya, negativizm, verbal agressiya.

**НЕГАТИВИЗМ КАК ДЕСТРУКТИВНАЯ ЧЕРТА ЛИЧНОСТИ**

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются социально-психологические исследования негативизма и агрессии, их виды и причины.

*Ключевые слова:* агрессия, физическая агрессия, аутоагрессия, негативизм, вербальная агрессия.

**NEGATIVISM AS A DESTRUCTIVE PERSONALITY TRAIT**

*Abstract.* This article discusses the social psychological research of negativism and aggression, its types and causes.

*Key words:* aggression, physical aggression, autoaggression, negativism, verbal aggression.

**KIRISH**

Psixologiyada hissiy holatlar individning kechiktirilmaydigan ehtiyojining sifati va jadalligi hamda bu ehtiyojning qondirilishi mumkinligiga uning o'zi beradigan baho bilan belgilanishi haqidagi tasavvur tarkib topgandir. Hissiyotlarning tabiati va paydo bo'lishiga bunday qarash hissiyotlarning axborot konsepsiyasi (P.V.Simonov) deb ataladi. Kishi ehtiyojlarning qondirilishi talab qilinadigan narsalar haqidagi axborotni, u anglab, yoki anglamay, shu ehtiyoj paydo bo'lgan paytda o'z ixtiyorida mavjud axborot bilan taqqoslaydi, Agar ehtiyojlarning qondirilishi ehtimoli sub'ektiv jihatdan qaraganda katta bo'lib tuyulsa, ijobiy his tuyg'ular paydo bo'ladi. Salbiy hissiyotlar ehtiyojlar qondirilishining real yoki tasavvurda mumkin emasligi sub'ekt tomonidan oz yo ko'p darajada anglanishi oqibatida yoxud ehtiyojlarning qondirilish ehtimoli haqida sub'ekt tomonidan oldinroq qilingan mo'ljalga qaraganda yo'qola borish natijasida paydo bo'ladi.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

Kundalik hayotda agressiya deganda biz ko'proq adolatsiz, asossiz hujumni tushunamiz. Ilmiy nuqtai nazardan esa aggressivlik tushunchasi g'azab, jahl, nafratni anglatadi. U hech qanaqa, ijobiy ham salbiy ham ko'rinishga ega bo'lmay, neytral tushuncha hisobalanadi. Bu ta'rifni K.Lorens «G'azab: aggressiv xulq-atvorning tabiiy tarixi» nomli kitobida keltirib o'tadi. Agressiya ko'pincha hujum qilganda ko'zga tashlanadi, biroq g'azabsiz hujumni etologlar agressiya deb atamaydilar. Tabiatda bir tur ikkinchi turga hujum qiladi. Biroq, etolog har qanday hujumni ham agressiya deb nomlamaydi. Bo'ri quyonga hujum qilsa, agressiya emas, ov hisoblanadi. Shu kabi, ovchining o'rdak otishi yoki baliqchining qarmoq tashlashi agressiya emas. Chunki ular o'ljaga nisbatan qo'rquv, g'azab yoki nafrat hissini tuymaydi. Agressiv xulq-atvorni esa, ushbu tuyg'ular yuzaga keltiradi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Kundalik hayotda bizning agressivligimiz turli insonlar bilan yuzaga keluvchi maydanchuyda ziddiyatlar orqali yuzaga chiqib turadi. Inson o'zida namoyon bo'ladigan agressivlikning turli ko'rinishlarini boshqarishni o'rganishi, tarbiyalashi mumkin bo'lsada, agressivlikning eng kuchli instiktiv xususiyat bo'lganligi sababli uni to'liq yo'qotib bo'lmaydi. Shuni esda saqlash lozimki, agressiv insonning atrofidagi qo'zg'atuvchilarni bartaraf etish orqali uning agressivligini yo'qotmaymiz, balki yig'ilib borishiga yo'l qo'yib beramiz. Natijada kuchli darajada namoyon bo'lishiga sabab bo'lamiz.

A.Bass va I.Darkining "Agressiya shakllari va uning ko'rsatkichlarini diagnostika qilish metodikasi"da shaxsdagi agressiya ko'rinishlarini quyidagi 8 ta asosiy agressiya ko'rinishlari asosida baholangan:

1. Jismoniy agressiya - boshqa bir odamga qarshi jismoniy kuch ishlatish;
2. Verbal agressiya - salbiy his-tuyg'ularni og'zaki tarzda ifodalash (janjal, qiy-chuv solish, so'kinish, tahdid solish, la'nat aytish, qarg'ish kabilar);
3. Orqavartdan bo'ladigan yoki bilvosita agressiya - boshqa shaxsga qaratilgan g'iybat, piching ko'rinishidagi bilvosita olinadigan alam, nafratning yo'nalishi aniqlanmagan bo'lishi ham mumkin (yer tepish, baqirib chaqirish);
4. Negativizm - (voqelikka salbiy munosabatda bo'lish, hamma narsani inkor etish) - rahbariyat yoki obro'ga qarshi yo'nalgan xulq-atvor, talab, tartib qonunlarga qarshi passiv monelikdan faol xatti-harakat darajasigacha borib yetishi mumkin.
5. Jizzakilik - jizzakilikka moyillik, arzimagan narsaga ham portlab ketish, keskinlik, qo'pollik qilish;
6. Sergumonlik - ishonchsizlikka moyillik, odamlar bilan ehtiyot bo'lib munosabatga kirishish, atrofdagilar zarar yetkazishi mumkin degan o'y bilan yashash;
7. Ranj - kimdandir yoki butun olamdan alamzadalik, xayolan yoki chindan ham keltirilgan iztirob, g'azab, atrofdagilarga nisbatan nafrat, hasadning namoyonbo'lishi;
8. Autoagressiya - o'zi va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarda kuzatiladigan aybdorlik hissi, o'ziga qarshi qaratilgan xatti-harakat, ya'ni o'zini ayblash, men undog'man, men bundog'man deb ich-etini yeyish.

Shu boisdan, eng katta ahamiyat bolalarga tajovuzkorlikni o'rganishga, ijtimoiylashuvning birlamchi vositachilari, aniqrog'i ota-onalarning ta'siriga qaratiladi. Xususan, ota-onalarning xulq-atvorlari tajovuzkorlik modeli vazifasini o'tashi va agressiv ota-onalarning bolalarida ham agressivlik kuzatilishi isbotlandi. Shuningdek, ushbu yondashuv namoyondalari keng diapozandagi tajovuzkor reaksiyaning inson tomonidan o'zlashtirilishi - ushbu xulqni to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirishga kiradi. Ya'ni, tajovuzkor xatti-harakatning mustahkamlanishi mazkur xatti-harakatning keyinchalik ham takrorlanish ehtimolini oshiradi. Shuningdek, natija keltiradigan tajovuzkorlik, ya'ni tajovuzkor xulqning qo'llanilishi oqibatida muvaffaqiyatga erishish ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

#### **XULOSA VA MUNOZARA**

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, bola xatti-harakatlarining amalga oshirilishida undagi taqlidchanlik xususiyatining o'rni kattadir. Bolaning boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tajovuzkorona faoliyatni kuzatishi unda shunganisbatan taqlid qilib ko'rish istagini keltirib chiqaradi. Ushbu istak ta'siri natijasida g'ayriqonuniy harakat amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, yoshlar ongida faol ijobiy munosabat (his-tuyg'ular) tizimini shakllantirish va rivojlantirish orqali tajovuzkorlik (agressiya) xatti-harakatlarni tarbiyalash, hamda shaxslararo munosabatlar (shuningdek, o'z-o'ziga) tizimini yanada yuksak darajaga olib chiqish mumkin, debo'ylaymiz.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixologicheskie mexanizmi deviantnogo povedeniya. Psixologiya XXI veka. Yaroslavl., 2020. –S. 125-127.
2. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
3. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. Vestnik integrativnoy psixologii jurnal dlya psixologov. Vipusk № 22, 2021 g. S 233-237.
4. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
5. Elov Z.S. Issledovaniya prichin usloviy, faktorov suisidalnogo riska. Yevraziyskiy yuridicheskiy jurnal. 7 (86) 2015. 310-312
6. Narzullaevna, G. K. (2022). PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF FACTORS THAT DESTROY FAMILY STRENGTH. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 1528-1523.
7. O'ralovna, J. G. (2022). Social Psychological Problems of Alienation. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 204-206.
8. Жумаева, Г. У. (2021). Психологические механизмы формирования профессиональных отношений будущего педагога. *Достижения науки и образования*, (4 (76)), 72-76.
9. Rahmonova, M. (2021). Patriotic ideas in the works by fitrat: theoretical and practical harmony. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 1466-1474.
10. Narzullayevna, K. G. (2021). Characteristics of marriage motivation in young people. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 2238-2241.
11. Usmanovna, A. N. (2021). The role of parents in the upbringing of children. *ACADEMICIA: An Internati*
12. Каюмова, Г. Н. (2022). СЕВГИ-МУҲАББАТ АСОСИДАГИ НИКОҲНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Science and innovation*, 1(В3), 411-414.onal Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1995-1999